QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: SIRDARYO VILOYATI TAJRIBASI ASOSIDA

Maxamadiyev Turg‘unboy Jumabayevich
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID 0009-0004-6809-918
https://doi.org/10.5281/zenodo.20748709

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish, tarmoqni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional to‘siqlarni bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida tranzaksion xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan “Agro-R&D xab” davlat-xususiy sheriklik modeli hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yakuniy natijaga asoslangan differensial subsidiyalash mexanizmi ishlab chiqilgan. Sirdaryo viloyati ma’lumotlari asosida Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasining modifikatsiyalangan ekonometrik modeli yordamida tarmoqning istiqboldagi investitsion ehtiyojlari prognoz qilingan.*

Kalit so‘zlar: *investitsion jozibadorlik, davlat-xususiy sheriklik, tranzaksion xarajatlar, differensial subsidiya, ESG mezonlari, ekonometrik modellashtirish, agrosanoat klasterlari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы привлечения инвестиций в сельское хозяйство, совершенствования механизмов финансирования сектора и устранения институциональных барьеров. В рамках исследования разработана модель государственно-частного партнерства «Агро-НИОКР-хаб», направленная на снижение транзакционных издержек, и дифференцированный механизм субсидирования государственной поддержки в зависимости от конечного результата. На основе данных Сырдарийской области с помощью модифицированной эконометрической модели производственной функции Кобба-Дугласа спрогнозированы будущие инвестиционные потребности сектора.*

Ключевые слова: *инвестиционная привлекательность, государственно-частное партнерство, транзакционные издержки, дифференцированное субсидирование, критерии ESG, эконометрическое моделирование, агропромышленные кластеры.*

Annotation. *This article examines the issues of attracting investments to agriculture, improving the financing mechanisms of the sector, and eliminating institutional barriers. As part of the research, the “Agro-R&D Hub” public-private partnership model aimed at reducing transaction costs and a differential subsidy mechanism for state support based on the final result were developed. Based on the data of the Syrdarya region, the future investment needs of the sector were forecasted using a modified econometric model of the Cobb-Douglas production function.*

Keywords: *investment attractiveness, public-private partnership, transaction costs, differential subsidy, ESG criteria, econometric modeling, agro-industrial clusters.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish va agrosanoat majmuasida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda investitsiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda global darajada agrosektorga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning tarkibiy o‘zgarishi kuzatilmoqda,

xususan, an'anaviy moliyalashtirishdan "yashil" moliyalashtirishga, resurs tejamkor texnologiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga o'tish jadallashmoqda.

Mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligini isloh qilish, tarmoqda davlat ishtirokini qisqartirish va bozor tamoyillarini keng joriy etish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish strategik vazifa etib belgilangan. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va agroklasterlar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini yaratish ko'zda tutilgan. Tarmoqqa jalb etilayotgan xususiy va xorijiy kapital hajmini oshirish, subsidiyalash tizimining yakuniy natijadorligini ta'minlash hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning davlat boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi va metodologiya

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilish va agrosanoat majmuasini moliyalashtirish masalalari J.M. Keyns,[1] Y. Shumpeter [2] kabi mumtoz olimlar, shuningdek, C. Miller, G. Gereffi kabi zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Respublikamizda bu borada salmoqli izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, global raqamlashtirish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida investitsion jozibadorlikni ESG (Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) mezonlari asosida baholash va differensial moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish maxsus yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik baholash, tizimli yondashuv, ssenariyli prognozlash hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, kapital oqimlariga ta'sir etuvchi tranzaksion xarajatlarni baholashda neoinstitutsional yondashuv qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Qishloq xo'jaligi sohasining texnologik va iqtisodiy tabiati boshqa tarmoqlardan keskin farq qiladi. Tabiiy va iqlimiy sharoitlarga bog'liqlik, ishlab chiqarishning mavsumiyligi hamda kapital aylanmasining sekinligi tarmoqda yuqori risklarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimi tahlili shuni ko'rsatdiki, joriy moliya manbalarining asosiy qismi qimmat va qisqa muddatli tijorat banklari kreditlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa innovatsion loyihalarni to'laqonli moliyalashtirish imkonini cheklaydi.

Investitsion jozibadorlikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biri – bu moliya bozori va agrosanoat subyektlari o'rtasidagi axborot asimmetriyasi hamda yashirin tranzaksion xarajatlardir. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, ushbu xarajatlarni minimallashtirish uchun innovatsiyalarni tijoratlashtirishning markazlashgan "Agro-R&D xab" (Davlat-xususiy sheriklik) modelini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur model "davlat – ilm-fan – agroklaster" zanjirini yagona ekotizimda birlashtiradi. Buning natijasida klasterlarning tashqi axborot izlash va shartnomalar tuzish bilan bog'liq tranzaksion xarajatlari qisqarib, ichki korporativ xarajatlarga aylanadi hamda xorijiy investitsiyalarning o'zini oqlash muddati o'rtacha **0,8 – 1,2 yilga** tezlashadi [9].

3.2. Subsidiyalashning differensial va natijaga asoslangan mexanizmi

Amaldagi subsidiyalash tizimi ko'pincha "tenglashtiruvchi" tamoyilga asoslangan bo'lib, kutilgan makroiqtisodiy samarani bermayapti. Shu sababli, byudjet mablag'larining qaytimini oshirish maqsadida yakuniy natijadorlikka bog'langan differensial subsidiyalash mexanizmi ishlab chiqildi.

Ushbu mexanizmning matematik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$S_{diff} = S_{base} * (1 + K_{yq} + K_{yeld} + K_{res})$$

Bu yerda:

- S_{diff} – ajratiladigan yakuniy differensial subsidiya miqdori;
- S_{base} – texnologiya joriy etilgani uchun kafolatlangan bazaviy stavka;
- K_{yq} – qo‘shimcha qiymat yaratish (Value-added) koeffitsiyenti;
- K_{yeld} – gektaridan olingan foyda o‘sishini baholovchi koeffitsiyent;
- K_{res} – resurs tejamkorlik (tejalgan suv yoki energiya) koeffitsiyenti.

Mazkur tizim davlat subsidiyalarini passiv xarajatdan, qishloq xo‘jaligida zanjirli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi “aktiv investitsion drayver”ga aylantiradi.

3.3. Ekonometrik prognozlashtirish va ssenariyli baholash

Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuasining 2010–2025-yillardagi ma’lumotlari negizida hududiy yalpi mahsulot (Y) va unga ta’sir etuvchi investitsion omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik Kobb-Duglas modifikatsiyalangan ekonometrik modeli asosida baholandi:

$$Y = B_o + B_1X_{dxsh} + B_2X_{kredit} + B_3X_{sub} - B_4X_{tc} + B_5X_{inno} + e$$

Tahlil natijalari modelning yuqori darajada ishonchliligini (R^2 = 0.914) ko‘rsatdi. Quyidagi jadvalda ko‘p omilli regressiya tahlilining asosiy natijalari keltirilgan:

1-jadval

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmiga ta’sir etuvchi omillarni baholash natijalari

Mustaqil omillar	**Koeffitsiyentlar (β)**	**P-qiymat (Prob.)**	**Ta'sir darajasi**
Xorijiy va DXSh investitsiyalari hajmi	0.315	0.001	Kuchli ijobiy
Differensial subsidiyalar hajmi	0.270	0.002	Kuchli ijobiy
Tijorat banklari kreditlari hajmi	0.245	0.004	O‘rta ijobiy
Innovatsion qamrov darajasi	0.195	0.010	O‘rta ijobiy
Tranzaksion xarajatlar hajmi	-0.140	0.022	Salbiy (Teskari)

Muallif ishlanmasi.

Model shuni matematik isbotladiki, yalpi mahsulot o‘sishiga eng katta ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi drayverlar aynan davlat-xususiy sheriklik asosidagi sarmoyalar hamda differensial subsidiyalar hisoblanadi. Qimmat bank kreditlarining iqtisodiy ta’siri nisbatan past, tranzaksion xarajatlar esa iqtisodiy o‘sishni bevosita orqaga tortuvchi stoxastik omildir [9].

Olingan ekonometrik natijalar asosida 2026–2030-yillar uchun ARIMAX modeli yordamida uchtadan iborat (inersion, realistik, optimistik) rivojlanish ssenariylari ishlab chiqildi. Taklif etilgan chora-tadbirlar to‘liq joriy etilganda (Optimistik ssenariy), viloyatda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmi qariyb **2 barobarga** (52,8 trln so‘mgacha) oshishi kafolatlanadi. Shuningdek, klasterlarning qimmat tijorat bank kreditlariga bo‘lgan tobe’ligi hozirgi **75%** dan **35%** gacha pasayib, tarmoq to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozor va xorijiy investitsiyalar hisobiga rivojlanish bosqichiga o‘tadi [11].

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan kompleks tadqiqotlar va ekonometrik tahlillar asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning investitsion mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- **Institutsional yondashuvga o‘tish:** Tarmoqni faqat byudjet mablag‘lari va qimmat kreditlar hisobidan “ekstensiv” moliyalashtirish strategiyasidan voz kechib, mulk huquqi himoyasi, axborot ochiqligi va tranzaksion xarajatlarni qisqartirishga asoslangan kompleks bozor mexanizmlarini yaratish zarur.
- **DXSh doirasida tranzaksion xarajatlarni kamaytirish:** Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini moddiy ta’minlovchi “Agro-R&D xab” modelini keng joriy etish orqali xorijiy va mahalliy investorlarning adaptatsiya hamda byurokratik xarajatlarini keskin minimallashtirish lozim.
- **Differensial subsidiyalashga o‘tish:** Davlat byudjeti sarmoyalarini manzilli sarflash uchun "tenglashtiruvchi" yordamdan voz kechish va subsidiyalarni faqat hosildorlik, resurs tejamkorlik va qo‘shimcha qiymat yaratgan subyektlarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.
- **“Yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish:** Tarmoqdagi investitsion jozibadorlikni an'anaviy usullardan ko‘ra, ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) mezonlari asosida baholashni qonunchilikka kiritish va xalqaro moliya institutlarining arzon "yashil" fondlarini jalb etish mexanizmlarini kengaytirish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, davlat moliyaviy resurslarini tarmoqni raqamli va ekologik modernizatsiya qiluvchi xususiy venchur sarmoyalari bilan birlashtirish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini yuqori daromadli, eksportbop va resurs tejovchi sohaga aylantirishning eng istiqbolli yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES

1. Keyns J.M. (Keynes, J. M.) Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi (The General Theory of Employment, Interest, and Money). – London: Macmillan, 1936. – 472 p.
2. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
3. Campbell, C., Bailey, G. Agricultural Finance and Investment Models. – New York: Economic Press, 2008.
4. Ушачев И.Г. Аграрная политика России: проблемы и решения. Монография. – М.: Изд-во ФГБНУ ФНЦ ВНИИЭСХ, 2018. – 230 с.
5. Tashmatov R., Sauxanov J. Qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mintaqaviy xususiyatlari. // "Iqtisodiyot va moliya" jurnali. – T., 2021. – № 4.
6. Ubaydullayev K., Doschanov T. Tarmoqda investitsion jozibadorlikni oshirish: Qoraqalpog‘iston va Xorazm tajribasi. // "Agroiqtisodiyot". – 2022. – № 2.
7. Murtazayev O. Qishloq xo‘jaligida axborot-maslahat (Extension services) xizmatlarini moliyalashtirish. // "Iqtisodiyot va ta'lim". – 2023. – № 6.
8. Burxanov A. Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosobatlarini takomillashtirish. // Monografiya. – Guliston: Ziyo nashr-matbaa, 2024-y. – 112 b.
9. Maxamadiyev T.J. Qishloq xo‘jaligida innovatsion investitsiyalash va muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish (Sirdaryo viloyati misolida) // “Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. – Toshkent, 2026. – №4. – B. 286-291.

10. Maxamadiyev T.J. Subsidiyalash mexanizmi orqali investitsion faoliyatni takomillashtirish // “Moliya, pul va kredit” elektron jurnali. – Toshkent, 2025. – №5. – B. 220-226.
11. Maxamadiyev T.J. The relationship between investment and economic growth in agriculture: an empirical analysis // American Journal of Economics and Business Management. – 2024. – Vol. 9, Issue 4. – P. 296-304.